

7-sinf. Ona tili. 3-BSB. (50 ball)
TASVIRIY MATN YARATISH

Qamrab olingan mavzular (taqvim mavzu reja asosida):

1. Savol va topshiriqlar. Yuklama.
2. Fe'llarning tuzilishiga ko'ra turlari.
3. Gap bo'laklari. Tahliliy matn yozish
4. Tasviriyl matn.
5. Atamalar.
6. Fe'l zamonlari.
7. Tasviriyl matn. Topshiriqlar ustida ishlash.

Berilgan rasmlar asosida tasviriyl matn yarating.

Bog'dagi so'lim manzara



Maktab hovlisida



Tasviriy matn yaratishda o'quvchiga qo'yiladigan talablar:

1. Matnni imlo va punktuatsion qoidalarga hamda husnixat talablariga amal qilgan holda yozing.
2. Matnni izchil hamda qiziqarli tarzda bayon qiling, xulosalang.
3. Matnda fe'llarning tuzilish jihatdan barcha turlaridan o'rinli foydalaning.
4. Matnda mavzuga oid atamalardan o'rinli foydalaning.
5. Matnda yuklamalardan foydalaning.

Baholash mezonlari (50 ball)	
1. Savodxonlik (imlo hamda punktuatsiya), husnixat talablarining bajarilganligi	10 ball
Matn imlo hamda punktuatsion xatolarsiz, husnixat talablariga amal qilgan holda yozilgan bo'lsa –	10 – 8 ball
Uch-to'rt o'rinda imlo hamda punktuatsion xatoliklarga yo'l qo'yilgan, lekin husnixat talablariga amal qilingan bo'lsa –	7 – 5 ball
Besh-olti o'rinda imlo hamda punktuatsion xatoliklarga yo'l qo'yilgan, husnixat talablariga amal qilinmagan bo'lsa –	4 – 1 ball
2. Mazmun, izchillik, xulosa	10 ball
Matndagi fikrlar asosli, izchil ifodalangan, qiziqarli xulosalangan bo'lsa –	10 – 8 ball
Matndagi fikrlar asosli, izchil ifodalangan, matn xulosasi juda jo'n va sodda bo'lsa –	7 – 5 ball
Matndagi fikrlar izchilligiga putur yetgan, xulosalanmagan bo'lsa –	4 – 1 ball
3. Matnda fe'llarning tuzilish jihatdan barcha turlaridan o'rinli foydalana olishi	10 ball
Matnda fe'llarning tuzilish jihatdan barcha turlaridan o'rinli foydalangan, matn mazmuniga mos kelgan bo'lsa –	10 – 8 ball
Matnda fe'llarning tuzilish jihatdan barcha turlaridan ayrim o'rinlarda foydalangan, matn mazmuniga mos kelgan bo'lsa –	7 – 5 ball
Matnda fe'llarning tuzilish jihatdan barcha turlaridan qisman foydalangan, lekin matn mazmuniga mos kelmagan bo'lsa –	4 – 1 ball
4. Matnda mavzuga oid atamalardan o'rinli foydalanishi	10 ball
Matnda mavzuga oid atamalardan o'rinli foydalanib so'z takroriga yo'l qo'ymagan bo'lsa –	10 – 8 ball
Matnda mavzuga oid atamalardan foydalangan, ammo ayrim o'rinlarda so'z takroriga yo'l qo'ygan bo'lsa –	7 – 5 ball
Matnda mavzuga oid atamalardan deyarli foydalanmagan, so'z takroriga yo'l qo'ygan bo'lsa –	4 – 1 ball
5. Matnda yuklamalardan foydalanishi	10 ball
Matnda yuklamalardan o'rinli foydalangan bo'lsa –	10 – 8 ball
Matnda yuklamalardan qisman foydalangan bo'lsa –	7 – 5 ball
Matnda yuklamalardan deyarli foydalanmagan bo'lsa –	4 – 1 ball
Jami:	50 ball